




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

“MASXARA” OBRAZINING BADIY-TARIXIY FUNKSIYASI
(xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)

**THE ARTISTIC AND HISTORICAL FUNCTION OF THE IMAGE OF
«MOCKUMENT»
(FROM FOLK ORAL LITERATURE TO THE PRESENT DAY)**

Sadoqat KAMOLOVA,
TOSHDO‘TAU tayanch doktorant
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/BDYW4827

Annotation. *This study will examine the early examples of the image of «mockery,» court mockery, the essence of its transfer to fiction, its artistic function, the truths hidden behind the image of mockery, and the uniqueness of the image of mockery found in contemporary works of art.*

Key words: *Circus clown, trickster, stage, fiction, folklore, traitor, laughter, vice, epic, spectacle*

Bugungi kunda folklor namunalari yuzasidan qilingan ilmiy ishlar salmoqli bo‘lsada, ayrim obraz va sahna tomoshalari to‘liq o‘rganilgan emas. Folklor adabiyoti ulkan manbalarga boyligi, qadimiyligi va albatta inson tajribalari, tushunchalarini ifodalashi bilan katta ahamiyatga ega. Bu ummon ichidagi ba’zi dur-u marvaridlar olimlar diqqat markazidan chetda qolayotgani sir emas. Shunday sirlardan biri “masxara” obrazi. Masxarabozlik-og‘zaki dramaturgiya asosida faoliyat ko‘rsatgan o‘zbek an’anaviy teatri; qiziqchilik [O‘TIL. 2006; 554] ma’nolarini ifodalaydi. Sahna tomoshasi sifatida qadimdan mashhur va o‘ziga xos ta’siri bilan kishilar diqqatini tortib kelgan faoliyat hisoblanadi. Ushbu san’at vakillari masxaraboz sanalib, lug‘aviy ma’nosi- tomoshaxonalarda, sayillarda va umuman xalq ko‘p to‘plangan joylarda tomoshabinlarni kuldiradigan o‘yinlar ko‘rsatuvchi qiziqchi, artist. Sirk masxarabozi. Nayrangboz [O‘TIL. 2006; 554] sifatida talqin qilinadi.

Masxarabozlik tomosha san’ati bo‘lib, sirk tomoshasi bilan bog‘liq hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Sirk ham tomosha san’atining bir turi sanaladi. Sirk mavzusi ko‘p figurali kompozitsiyadan iborat ya’ni, katta arenada namoyish etilgan tomoshalar, hayvonlar orqali sahnada tomosha ko‘rsatish, tomoshabinlarning hayrati va olqishi, masxarabozlik tomoshasi vahokazo. Sirk ikki turdan: ma’lum makonda qo‘nim topgan va ko‘chib yuruvchi sayyor sirkdan iborat bo‘lib, masxarabozlik asosan ikkinchi turiga mansubdir. Xalq sayllarida mazkur tomosha kishilarga kulgi ulashishi bilan bir qatorda, jamiyatdagi illatlar bilan birga yuqori tabaqa vakillarining asl yuzishini ko‘rsatish uchun ham xizmat qiladi. Masxara obrazining badiiy asarga ko‘chishiga mana shunday tarixiy bosqichlar sabab bo‘lgan. Demak, masxara tomoshasi mohiyatida satirik dramaturgiya turgan.

Muqallidlik san’atining masxara obraziga hissasi katta. Nega masxaralar niqobda chiqadi? Asl yuzini berkitadi? Nega insonlarga quvonch ulashadi-yu niqobdagi ko‘rinishi ma’yus bo‘ladi? kabi savollarga javobni ushbu san’at orqali olish va anglash mumkin. Qadimgi diniy qarashlarga ko‘ra marhumlarni eslash marosimi o‘tkazilgan va unda maxsus niqob kiygan shartli ijrochi marhumning so‘zlari, xatti-harakatlariga taqlid qilib, uni yodga

soluvchi dialoglar, harakatlarni bajargan. Bu xuddi ikki kishilik parchaning namoyishi kabi dialoglardan iborat o'ziga xos kichik tomoshani hosil qilgan. Vaqt o'tib marhum qiyofasini gavdalantirish marosimi o'zining vazifasi va mazmunidan uzoqlashdi. Faqat o'sha shakliy xususiyatini saqlab qoldi, xolos. Niqoblar iste'dodli masxarabozlar qo'liga tushib, marosim kichik tomoshalarga aylandi [Mamatqulov 2021; 144]. Maxsarabozlar arab bosqiniga qadar ushbu niqobdan foydalanib kelishdi. Sovet davriga kelib esa qiziqish yanada ortdi. Masxara tomoshalari deyarli quvg'inga uchramagan. Bunga sabab diniy jihatdan bunday tomoshalar qo'g'irchoq teatri kabi "jonlantirish" san'atiga asoslanganida edi. "Xalq teatri" tomosha ko'rsatish davrida aktyorlar "tanqid" va "taqlid" ("muqallid") qiluvchi ikki guruhga bo'linib, savol va javob orqali qisqa-qisqa dialog-muzokaraga muhim ahamiyat berar edilar. Bunday masxaraboz-qiziqchi aktyorlarning hunar vazifasi (qamrovi) juda keng edi. Ular mohirona dialog, monolog, qo'shiq aytish, raqsga tushish, turli jismoniy harakat, "akrobat", ya'ni muallaqchilik san'atlaridan keng ravishda foydalanganlar. Aktyorlar asardagi shaxs (obraz) qiyofasiga kirish, ularni kiyim nusxalariga o'xshatish, grim, turli maskalardan ham keng foydalanganlar [Jabborov v.b. 2018; 64].

Bundan tashqari epik asarlar sirasiga kiruvchi xalq dostonlarida ham masxara obrazlariga duch kelamiz. Alpomish dostonida "Yortiboy" obrazi buning yaqqol misoli. Boysari yechim topolmay, qarindoshlaridan maslahat so'rab turgan bir vaqtda, (dostonda bu holat ikki bor yuz bergan) elning donolari mavjud vaziyatda jim qolgan vaqtda, to'rdan joy tegmagan, bir payola choy tegmagan, kovushlarga aralashib, it yiqilish bo'lib yotgan holatda tasvirlangan Yortiboydan fikr eshitadi. Uning so'zini tinglagan Boysari kun kelib boshqa birining yurtida "Kelganboy" laqabini oladi. Folklorshunos Sh. Turdimov "Etnos va epos" nomli ishida "Yortiboychilik" sarlavhasi ostida Yortiboy obraziga alohida to'xtalib: "Yortiboilar uchun or-nomus, millat, vatan, kelajak nasl taqdiri degan tushunchalar begona. Uning joni tinch, qorni to'q, maishati bekam-u ko'st, oyog'i uzangida bo'lsa kifoya" [Турдимов 2011; 59], -degan fikr bildiradi. Bunday masxarabozlar qayerda yursa ham tinch yursa bas. Ularga vatan tushunchasi begona, yor tushunchasi ahamiyatsiz va aytgan gapining ortida ham turib beraolmaydigan-umumiy qilib aytganda kezi kelsa yurtini ham sotadigan "eng qo'rqinchili" shaxslarni ifodalaydi. Quyidagi misralarga diqqat qilsak, sen qayerga ketsang ortingdan ketamiz deya maslahat bergan "maslahatgo'y", Boysarining qizini so'rab kelgan Qalmoq alplariga nima deb javob berishga qiynalib, maslahat so'rab turgan vaqtda aytgan gapi orqali fikrimizni dalillasak:

Xon Boysari, eshit aytgan so'zimdi,
Bul ellarga boshlab kelgan o'zingdi,

Tortinmay beraver endi qizingdi,
Hazil bilma mening aytgan so'zimdi.

"Bul alplarni kuyov qilib olamiz,
Muna elga toza erkin bo'lamiz,

Bolalarni tog'a-jiyan qilamiz....
Chin bermasang ikki boshdan o'lamiz" [Алпомиш].

Masxara obrazi Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida hazzol, mutoyib nomlari bilan keladi. Saroy shoirlari haqida ma'lumot berar ekan, sifatleri ichida gapga

chechan, hazil-mutoyibaga boy insonlarni alohida ta'kidlab, ularning so'zdagina emas, taqlidchilikda ham usta ekanligini aytib o'tadi. "Xamsa" dostonlarining birinchi dostoni sanalmish "hayrat ul-abror" asarida esa "masxara" obrazining salbiy jihatlar haqida so'z yuritilini, salla kiyib, soqol qo'yib tomosha ko'rsatgan bilan xalqqa kulgi bo'lgani qoladi xolos deya har kasbni o'z ustasi qilgani ma'qul ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi.

Badiiy adabiyot namunalariga esa ko'chish sabablarini ko'rib chiqsak:

- masxarabozlar saroy adabiyoti davrida deyarli quvg'inga uchramagan. Sahnada ko'rsatilgan tomosha sabab jazolanishmagan. Bu esa badiiy adabiyotda yozuvchilar uchun jamiyatdagi illatlarni fosh etishga yaxshigina qurol vazifasini bajargan;
- niqob ortida qo'yilgan tomosha hamisha kuzatuvchi uchun qiziq bo'lgan. Bu qiziqlik esa uning har bir harakati va gaplarini diqqat bilan kuzatishga sabab bo'ladi;
- masxara obrazi orqali insonning xunuk odatlarini berish yanada samarali usul;
- masxara obrazi badiiy asarlarda faqat bir o'rindagina keladi va yashirin sirlarni ochishga, ichki iztiroblarni ifodalashga xizmat qiladi. Fransiyalik sayyoh L. Keren Amir Temur saroyi, ma'daniyati, urushdan keying saroy hayoti haqidagi "Amir Temur saltanati" nomli asarida sarkarda Amir Temurning zafarli yurishlaridan keyin g'alabani nishollash maqsadida dasturxon yozib bazm uyushtirishi, bazmda saroy masxarabozlarining tomoshalarini namoyish etilishi, namoyishdan so'ng Temur zudlik bilan vazifalarini su'iste'mol qilgan amaldorlarni dorga osishga buyurishini qayd etib ketadi [Кэрэн 1999; 151].

Xulosa qilib aytsek, masxara obrazi nafaqat folklor namunalarida balki badiiy adabiyotda ham o'ziga xos badiiy vazifa bajarishi, asar mohiyatini ochishga xizmat qilishi bilan qimmatlidir. Ushbu obraz ko'ngilochar tomosha ko'rsatuvchi emas, balki ijtimoiy muammolarni namoyon etuvchi murakkab obraz ifodasidir. Adabiyotda ham, teatr sohasida ham kulgu ortida haqiqatlarni fosh etuvchi yagona omil masxara obrazi bo'lib, qiyofasi va harakatlari telbani eslatkada, zukkoligi bilan, ta'sir etish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. O'zbek musiqasi tarixi. – Toshkent, 2018. – 64 b.
2. Mamatqulov B. Oriental Art and Culture. Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021.144
3. Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони //Айтувчи: Фозил Йўлдош ўғли, ёзиб олувчи: М. Зарифов. – Т.: Шарқ, 1998. – 606.
4. Кэрэн Л. Амир Темур салтанати//Француз тилидан тарж. ва изоҳлар муаллифи: Б. Эрматов; Мах-сус муҳаррир: Х. Султон; Сўз боши: Луи Базен/. – Т.: Маънавият, 1999. – 151-152 б.
5. Турдимов, Шомирза Этнос ва эпос. Ш. Турдимов; масъул муҳаррир Ж. Эшонкул; ЎЗРФА, А. Навоий номидаги тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: O'zbekiston, 2011. – 59 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1 жилд. – Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 554.